



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

SPAIN CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND
INNOVATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024




INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION: a collection scientific works of the International scientific conference – Madrid, Spain, 2025, Issue 4.

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION**». Which took place in Spain, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





INGLIZ VA O'ZBEK BADIY ADABIYOTIDA SHE'RIY SAN'ATLARNI QO'LLANILISHI

Yuldashev Og'abek Komiljon o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti
Xorijiy tillar kafedrası katta o'qituvchisi
Ogabek9297@gmail.com

ANNOTATSIYA. Maqolada tez aytishlarning fonetik–estetik xususiyatlari hamda o'zbek adabiyotidagi *tarsi* va ingliz tilidagi *ornament*ning o'xshashligi yoritiladi. Ularning nutq madaniyati va ohangdorlikni oshirishdagi ahamiyati ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: tez aytish, tarsi, ornament, fonetika, ohang.

АННОТАЦИЯ. В статье рассматриваются фонетические и эстетические особенности скороговорок и сопоставляется узбекский прием *tarsi* с английским *ornament*. Подчеркивается их роль в развитии ритма и выразительности речи.

Ключевые слова: скороговорка, tarsi, ornament, фонетика, ритм.

ABSTRACT. The article analyzes the phonetic and aesthetic features of tongue twisters and compares the Uzbek poetic device *tarsi* with the English concept of *ornament*. Their role in enhancing speech rhythm and expressiveness is highlighted.

Keywords: tongue twister, tarsi, ornament, phonetics, rhythm.

Tez aytishlar xalq og'zaki ijodining qadimiy qatlamiga mansub bo'lib, fonetik takrorlar, ritmik uyg'unlik va mazmunning yuqori darajada ixchamligi bilan ajralib turadi. Ushbu janrga xos bo'lgan artikulyasion murakkabliklar nutq apparatini faollashtirishi bilan birga, lisoniy-badiiy tafakkurning rivojlanishiga ham turtki beradi. Ayniqsa tovushlar o'yiniga asoslangan tez aytishlarning strukturaviy xususiyatlari ularning estetik mohiyatini belgilovchi omillardan biridir. Shu munosabat bilan tez aytish matnlarida uchraydigan badiiy san'atlarning mazmunni chuqurlashtiruvchi ma'naviy san'atlar hamda fonetik-shakliy omillarga tayanadigan lafziy san'atlarning o'zaro uyg'un qo'llanishi janrning poetik tabiatini ilmiy jihatdan to'laqonli tahlil etishda muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

Adabiyotshunosligimizda she'riy san'atlarni ma'naviy va lafziy san'atlarga ajratish an'ana bo'lib kelgan. Chunki ma'naviy san'atlar asarning mazmuni, g'oya va falsafasini boyitishga xizmat qilsa, lafziy san'atlar so'zning tovushi, ohangi va shakliga asoslanib, ta'sirchanlikni oshiradi. Shu sababli bu ajratish adabiy tahlilda she'riy san'atlarning har tomonlama tahlil qilinishiga imkon yaratadi.

Tarsi (ar. - ziynatlash, bezash) – she'r (bayt) da birinchi misra so'zlari bilan ikkinchi misra so'zlarining bir-biriga ohangdosh – vazndosh, qofiyadosh

bo'lib kelish usuli. Ataulloh Husayniy yozadi: tarsi "...andin iboratturkim, ikki bo'lak kalomning, xoh nazmda bo'lsun, xoh nasr, har bo'lagidag'i har bir lafz ikkinchi bo'lagidag'i anga muqobil lafz bila vaznda (bo'g'nlarning miqdori va sifat jihatdan teng kelishi) teng bo'lg'ay va oxirg'i harfta muvofiq (qofiyali).... Kelmagi sharttur". Tarsi san'ati she'riyatning nafis bezagi sifatida o'rin olgan va badiiy mahoratni, til boyligini namoyon etish uchun muhim vositadir. Bu san'at orqali muallif o'z asariga yanada o'ziga xoslik va ohangdorlik beradi. She'rni tinglash va o'qishda zavq bag'ishlaydi. U asosan she'riyatda qo'llanilib, baytlarning ohangdorligi va vaznini oshirishga xizmat qiladi. Bu san'at she'rga musiqiylik va estetik go'zallik baxsh etadi. Shuningdek, nasrda, nutq san'atida va og'zaki ijrolarda ham tarsiga o'xshash ohang va ritm uyg'unligi uchraydi. Ingliz adabiyotida "ornament" - so'zlarni nafis tarzda bezash va ularga ohang hamda ritm berish san'atidir. Demak, o'zbek adabiyotidagi "tarse" va ingliz adabiyotidagi "ornament" bir xil san'at hisoblanadi.

Tarsi ko'pincha tez aytishlarda til imkoniyatlarini ko'rsatib, nutq madaniyatini oshirishda qo'llaniladi. Bu san'at so'zlarning vazn, qofiya va ohang jihatidan mos kelishini ta'minlab, ifodani yanada boyitadi va tinglovchida yoqimli ta'sir qoldiradi.

Sovuqda tovuqqa tovoqda bodroq berdim¹².

Quyidagi tez aytishda "sovuqda", "tovuqqa", "tovoqda" so'zlari vositasida tarsi san'ati qo'llangan deyish mumkin. Ushbu leksemalarda ohangdorlik, qofiyadalash "-ga" (-ka, -qa) jo'nalish kelishik va "-da" o'rin-payt kelishik qo'shimchasi tarkibidagi "-a" harfi bilan yaratilgan. Agar, jo'nalish va o'rin-payt kelishigi qo'shimchalari bo'lmasa, tez aytish tarkibidagi "boqroq" so'zi ham boshqa so'zlar bilan birga tarse san'ati qo'llangan bo'lardi.

My mommy makes me muffins on Mondays.

Ornament so'zi san'atda bezak, naqsh yoki bezash degan ma'noni anglatadi, shu sababli mazkur tez aytish namunasi o'ziga xos bezak sifatida qaralib, nutqqa nafislik va maftunlik baxsh etadi. Ingliz xalqining bu tez aytishida so'zlar o'zaro uyg'unlashib, o'ziga xos ornament vazifasini bajaradi talaffuzga o'ziga xos bezak qo'shib nutqning sur'atini va jozibasini kuchaytiradi. Keltirilgan tez aytishlarda talaffuzdagi ravonlik va so'zlarning uyg'unligi nutqni jonlantirib, uning ta'sirini oshiradi. Ikki tilda keltirilgan tez aytish namunalari bu san'atlarning til va nutq madaniyatidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatadi. Keltirilgan tez aytishlarda tovushlar uyg'unligi, artikulyasion ravonlik va ritmik takrorlar nutqni jonlantirib, uning badiiy-estetik ta'sirini kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek va ingliz tillarida keltirilgan bu namunalar ornament san'atining ikki xil til tizimidagi ko'rinishlarini qiyoslash imkonini berib, uning til madaniyati, nutq estetikasi va fonetik mahoratni shakllantirishdagi o'rnini yaqqol ko'rsatadi.

¹² Rasulova.A. Sahna nutqi. – Toshkent Musiqa nashryoti, 2009. - B. 161

Xulosa qilib aytganda tez aytishlar xalq og'zaki ijodining fonetik va estetik jihatdan murakkab janri bo'lib, unda tovush takrorlari, ritmik uyg'unlik va mazmunning ixchamligi asosiy o'rin tutadi. Mazkur janrda uchraydigan badiiy san'atlar, xususan ma'naviy san'atlar va lafziy san'atlar, o'zaro uyg'unlashib, nutqni nafaqat ohangdor va ravon qiladi, balki tinglovchida estetik zavq va tafakkur faolligini oshiradi. O'zbek adabiyotidagi *tarse* san'ati va ingliz adabiyotidagi *ornament* tushunchalari bir-biriga funksional jihatdan yaqin bo'lib, so'zlarning vazn, qofiya va ohang jihatidan mos kelishini ta'minlaydi. Bu esa tez aytishlarning talaffuz malakasini rivojlantirish, nutq sur'atini oshirish va badiiy-estetik ta'sirini kuchaytirish imkonini beradi. Keltirilgan misollar orqali trop va stilistik figuralarning ikki til tizimidagi poetik-estetik roli ham namoyon bo'ladi, bu esa til va nutq madaniyati, shuningdek fonetik mahoratni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tez aytishlarda qo'llaniladigan tarsi/ornament san'ati nafaqat she'riyat va nasrda, balki og'zaki ijro va nutq san'atida ham o'zining foydali pedagogik va badiiy funksiyasini saqlab qoladi. Shu bilan birga, ikki tilli qiyosiy tahlil ularning universalligi va xalq og'zaki ijodidagi umumiy estetika printsiplarini ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бобоев Т. Шеър Илми Таълими. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
2. Хусайний Атоуллоҳ, Бадаиу-с-саной. Т., 1981
3. Puttenham G. The Arte of English Poesie. — London: Richard Field, 1589. — P. 151.
4. M.Reck. The 1st International Collocations of Tongue twisters, -1996-2004. PP.45 Number
5. Komiljon o'g, Y. O. A. (2025). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA CHET TILINI O'RGANISHDAGI YUZAGA KELADIGAN QIYINCHILIKLAR. *Ustozlar uchun*, 74(2), 195-199.
6. Komiljon o'g, Y. O. A. (2025). MAKTABGACHA TALIMDA BOLALARGA CHET TILINI O'QITISHDA UCHRAYDIGAN QIYINCHILIKLAR. *Ustozlar uchun*, 74(2), 190-192.
7. Boersma, P., & Weenink, D. (2023). Praat: Doing phonetics by computer.
8. Crystal, D. (2008). A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Blackwell.
9. Jurafsky, D., & Martin, J. (2022). Speech and Language Processing. Pearson.
10. OpenAI Whisper Model Documentation (2023).
11. O'zbekiston xalq og'zaki ijodi namunalari to'plami.
12. Rahmatullayev, Sh. (2010). Tilshunoslik asoslari. Toshkent: Fan.